| NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATI VA<br>MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....                                                                                     | 272 |
| <b>Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich</b>                                                                                                                                                                       |     |
| MILLIY HUNARMANDCHILIK SOHASINI HUDUDIY RIVOJLANTIRISHNING<br>INTEGRAL BOSHQARUV MODELI VA UNI BAHOLASH .....                                                                                                    | 279 |
| <b>Yaxshiliqov Sardor Rustam o'g'li</b>                                                                                                                                                                          |     |
| O'ZBEKISTONDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI:<br>EKONOMETRIK TAHLIL.....                                                                                                                          | 288 |
| <b>H.S. Bobojonov</b>                                                                                                                                                                                            |     |
| OLIY TA'LIM TIZIMIGA XORIJIY INVESTITSİYALAR JALB QILISHNING<br>USLUBIY ASOSLARI.....                                                                                                                            | 294 |
| <b>Mamanazarov A.A.</b>                                                                                                                                                                                          |     |
| OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH SALOHİYATINI<br>BOSHQARISH VA ISHLAB CHIQRISH XAVFSIZLIGI TA'MINLASHNING<br>METODOLOGIK JIHATLARI.....                                                          | 299 |
| <b>Gulmatov Sunnatillo Nurillayevich</b>                                                                                                                                                                         |     |
| BIOLOGIK AKTIVLAR SINTETIK VA ANALITIK HISOBINI TASHKIL ETISHDA<br>ISHCHI HISOBVARAQLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH .....                                                                                         | 308 |
| <b>Axmetova Salima Seytovna</b>                                                                                                                                                                                  |     |



UDK: 657.1:631.16

# BIOLOGIK AKTIVLAR SINTETIK VA ANALITIK HISOBINI TASHKIL ETISHDA ISHCHI HISOBVARAQLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Axmetova Salima Seytovna  
TDIU mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada qishloq xo'jaligi korxonalarida biologik aktivlarning sintetik va analitik hisobini tashkil etishda amaldagi hisobvaraqlar rejasining yetishmovchiliklari tahlil qilingan. 41-son «Qishloq xo'jaligi» BHXS (IAS 41) talablaridan kelib chiqqan holda uzoq muddatli va joriy biologik aktivlar uchun alohida ishchi hisobvaraqlar tizimi taklif etilgan: 0180, 0181, 0182 hamda 2600, 2610, 2620. Har bir hisobvaraq bo'yicha buxgalteriya o'tkazmalari ishlab chiqilgan. Taklif etilgan tizim biologik aktivlar harakati yuzasidan shaffof, tezkor va analitik axborot shakllantirishga, moliyaviy hisobotlarning ishonchligini oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** biologik aktiv, ishchi hisobvaraqlar, sintetik hisob, analitik hisob, buxgalteriya o'tkazmasi, uzoq muddatli biologik aktiv, joriy biologik aktiv, IAS 41, hisob siyosati, moliyaviy hisobot.

**Аннотация:** В статье проанализированы недостатки действующего плана счетов при организации синтетического и аналитического учёта биологических активов в сельскохозяйственных предприятиях. Исходя из требований МСФО (IAS) 41 «Сельское хозяйство», предложена система отдельных рабочих счетов для долгосрочных и текущих биологических активов: 0180, 0181, 0182, а также 2600, 2610, 2620. По каждому счёту разработаны бухгалтерские проводки. Предложенная система способствует формированию прозрачной, оперативной и аналитической информации о движении биологических активов и повышению достоверности финансовой отчётности.

**Ключевые слова:** биологический актив, рабочие счета, синтетический учёт, аналитический учёт, бухгалтерская проводка, долгосрочный биологический актив, текущий биологический актив, IAS 41, учётная политика, финансовая отчётность.

**Abstract:** The article analyses the shortcomings of the current chart of accounts in organizing the synthetic and analytical accounting of biological assets in agricultural enterprises. Based on the requirements of IAS 41 "Agriculture", a system of separate working accounts for long-term and current biological assets is proposed: 0180, 0181, 0182 as well as 2600, 2610, 2620. Accounting entries are developed for each account. The proposed system contributes to forming transparent, prompt and analytical information on the movement of biological assets and to improving the reliability of financial reporting.

**Keywords:** biological asset, working accounts, synthetic accounting, analytical accounting, accounting entry, long-term biological asset, current biological asset, IAS 41, accounting policy, financial reporting.

## KIRISH

Agrar sektor mamlakatimiz iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlaridan biri bo'lib, uning asosiy resurs manbalarini biologik aktivlar — chorva mollari, qishloq xo'jaligi ekinlari va ko'p yillik daraxtzorlar tashkil etadi. Bunday aktivlarning sintetik va analitik hisobini to'g'ri tashkil etish agrar korxonalarning moliyaviy holatini xolis aks ettirish va boshqaruv qarorlarini asoslashda muhim ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda respublikada moliyaviy hisobot tizimini xalqaro standartlar asosida isloh qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentyabrdagi "Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-282-son<sup>1</sup> qarori moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirishni nazarda tutadi. 41-son

1 <https://lex.uz/uz/docs/-7728924>



«Qishloq xo'jaligi» BHXS (IAS 41) talablariga ko'ra biologik aktivlar haqqoniy qiymat bo'yicha baholanishi hamda ular bilan bog'liq daromad, xarajat va qiymat o'zgarishlari alohida aks ettirilishi lozim.

Bundan tashqari, amaldagi milliy hisobvaraqlar rejasida biologik aktivlar uchun maxsus sintetik hisobvaraqlarni yanada rivojlantirish imkoniyati mavjud. Natijada biologik aktivlarni boshqa moddiy aktivlardan yanada aniqroq ajratib hisobga olish, ularning harakati, ko'payishi va qiymat o'zgarishlari yuzasidan shaffof hamda tezkor analitik axborotni shakllantirish imkoniyatlari kengayadi. Bu esa moliyaviy hisobot ma'lumotlarining ishonchlilikini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi — qishloq xo'jaligi korxonalarida biologik aktivlarning sintetik va analitik hisobini tashkil etish uchun uzoq muddatli va joriy biologik aktivlar bo'yicha alohida ishchi hisobvaraqlar tizimini va ularga mos buxgalteriya o'tkazmalarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida agrar soha korxonalarida biologik aktivlar hisobi jarayoni tanlangan.

Maqolada avvalo mavzuga oid adabiyotlar sharhi keltiriladi, so'ng tadqiqot metodologiyasi yoritiladi, taklif etilgan ishchi hisobvaraqlar tizimi, ularning tavsifi va buxgalteriya o'tkazmalari tahlil qilinadi hamda xulosa va amaliy tavsiyalar shakllantiriladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Biologik aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish masalasi xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlarida keng o'rganilgan. J. M. Argiles, J. Garsia-Blandon va T. Monllau (Argilés va boshq., 2011) biologik aktivlarni tarixiy qiymat va haqqoniy qiymat bo'yicha hisobga olish yondashuvlarini qiyosiy tahlil qilib, haqqoniy qiymat modelining afzalliklarini asoslagan. R. Goncalves, P. Lopes va R. Kreyy (Gonçalves va boshq., 2017) IAS 41 bo'yicha biologik aktivlarni haqqoniy qiymatda hisobga olishning qiymat bilan bog'liqligini tadqiq etgan.

Xorijlik iqtisodchi olim A. Ye. Viruchayeva (Viruchayeva, 2020) moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning hozirgi bosqichida biologik aktivlar uchun maxsus hisobvaraqlar yetarlicha ajratilmaganligini ta'kidlab, amaldagi hisobvaraqlar rejasiga tegishli sintetik hisobvaraqlarni kiritish hamda ularning tarkibida alohida analitik hisobvaraqlarni shakllantirish orqali tizimni takomillashtirishni taklif etgan.

A. M. Terexov (Terexov, 2021) biologik aktivlar hisobini optimallashtirish maqsadida ishchi hisobvaraqlar rejasiga alohida hisobvaraqlarni ajratgan holda sintetik, analitik hamda subhisobvaraqlar tizimini shakllantirishni va ular yordamida biologik aktivlar bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalarini aks ettirish tartibini asoslab bergan. R. A. Alborov va G. S. Klychova (Alborov va Klychova, 2020) biologik aktivlarni hisobga olish va baholashning amaliy muammolarini tadqiq etgan.

Mamlakatimiz olimlaridan N. K. Rizayev (Rizayev, 2022), S. N. Tashnazarov (Tashnazarov, 2021), I. N. Ismanov (Ismanov, 2023) va A. S. Boltayev (Boltayev, 2024) milliy amaliyotda biologik aktivlar hisobi va auditi masalalarini tadqiq etib, hisob siyosati va hisobvaraqlar rejasini takomillashtirish bo'yicha takliflar ilgari surgan.

Mavjud ilmiy ishlarda biologik aktivlar hisobining ayrim jihatlarini yoritilgan bo'lsa-da, uzoq muddatli va joriy biologik aktivlarni yagona tizimda qamrab oluvchi sintetik va analitik hisobvaraqlar hamda ularga mos buxgalteriya o'tkazmalarini IAS 41 talablari va milliy hisobvaraqlar rejasiga doirasida yaxlit shakllantirish masalasi yetarlicha ishlab chiqilmagan. Mazkur tadqiqot shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy abstraksiya, kuzatish, tahlil va sintez, tizimli va qiyosiy tahlil hamda guruhlash usullaridan foydalanilgan. Tadqiqotning empirik bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari, qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy hisobotlari hamda amaldagi milliy hisobvaraqlar rejasida tashkil etadi.

Tadqiqot dizayni uch bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda amaldagi hisobvaraqlar rejasida biologik aktivlar hisobining yetishmovchiliklari tahlil qilinadi. Ikkinchi bosqichda biologik aktivlar harakat xususiyatiga ko'ra turlarga (uzoq muddatli va joriy; o'simliklar va hayvonlar) ajratilib, sintetik va analitik hisobvaraqlar tizimi loyihalanganadi. Uchinchi bosqichda har bir hisobvaraqlar bo'yicha ikkiyoqlama yozuv prinsipi asosida buxgalteriya o'tkazmalari ishlab chiqiladi.

Taklif etilayotgan ishchi hisobvaraqlar tizimi 41-son "Qishloq xo'jaligi" BHXS (IAS 41) talablari hamda milliy buxgalteriya hisobi me'yoriy-huquqiy asoslari bilan uyg'unlashtirilgan holda shakllantirildi. Bunda sintetik hisobvaraqlar umumlashtiruvchi, analitik hisobvaraqlar esa batafsil (detal) axborot berish vazifasini bajaradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR


Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, amaldagi hisobvaraqlar rejasida biologik aktivlar alohida obyekt sifatida to'liq ajratilmagan. Shu bois biologik aktivlarni harakat xususiyatiga ko'ra uzoq muddatli va joriy guruhlariga ajratib, har bir guruh uchun alohida sintetik va analitik hisobvaraqlarni kiritish taklif etiladi (1-rasm).



## Uzoq muddatli biologik aktivlar (0-sinf)



## Жорий biologik aktivlar (2-sinf)

1-rasm. Biologik aktivlar uchun taklif etilayotgan ishchi hisobvaraqlar tizimining tuzilishi<sup>2</sup>

Uzoq muddatli biologik aktivlarni hisobga olish uchun taklif etilayotgan hisobvaraqlar va ularning tavsifi 1-jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

Uzoq muddatli biologik aktivlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar va ularning tavsifi<sup>3</sup>

| Raqami | Hisobvaraq nomi                   | Turi | Tavsifi                                                                                            |
|--------|-----------------------------------|------|----------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 0180   | “Uzoq muddatli biologik aktivlar” | S    | Uzoq muddatli biologik aktivlarni umumlashtiruvchi bosh (sintetik) hisobvaraq                      |
| 0181   | “O’simliklar”                     | A    | Hosildor o’simliklardan tashqari, turli uzoq muddatli o’simliklar hisobi uchun foydalaniladi       |
| 0182   | “Hayvonlar”                       | A    | Mahsuldor hayvonlar (sigirlar, biyalar, qo’ylar, echkilar va boshqalar) hisobi uchun foydalaniladi |

Uzoq muddatli biologik aktivlar bilan bog’liq xo’jalik operatsiyalari quyidagi buxgalteriya o’tkazmalari yordamida aks ettiriladi (2-jadval).

2-jadval

Uzoq muddatli biologik aktivlar bo’yicha tavsiya etilayotgan buxgalteriya o’tkazmalari<sup>4</sup>

| № | Muomala mazmuni                                                                                       | Debet                                      | Kredit                                                           |
|---|-------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------|------------------------------------------------------------------|
| 1 | Uzoq muddatli biologik aktivlar (o’simliklar, mahsuldor hayvonlar) sotib olindi                       | 0181 yoki 0182                             | 6010 “Yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar” |
| 2 | O’zida yetishtirilgan ko’p yillik o’simliklar uzoq muddatli biologik aktivlar tarkibiga qabul qilindi | 0181 “O’simliklar”                         | 2010 “Asosiy ishlab chiqarish”                                   |
| 3 | Boquvdagi hayvonlar asosiy podaga o’tkazildi                                                          | 0182 “Hayvonlar”                           | 2620 “Hayvonlar”                                                 |
| 4 | Hisobot davri oxirida biologik aktivlarning haqqoniy qiymati oshdi                                    | 0181, 0182                                 | 9390 “Boshqa operatsion daromadlar”                              |
| 5 | Biologik aktivlarning haqqoniy qiymati kamaydi                                                        | 9490 “Boshqa operatsion xarajatlar”        | 0181, 0182                                                       |
| 6 | Mahsuldor hayvon hisobdan chiqarildi                                                                  | 9210 “Asosiy vositalarning chiqib ketishi” | 0182 “Hayvonlar”                                                 |
| 7 | Ishchi hayvonlar biologik aktivlar tarkibidan chiqarilib, asosiy vositalar tarkibiga o’tkazildi       | 0170 “Ish hayvonlari”                      | 0182 “Hayvonlar”                                                 |

2 Manba: muallif ishlanmasi.

3 Manba: muallif ishlanmasi.

4 Manba: muallif ishlanmasi.



Joriy (qisqa muddatli) biologik aktivlarni hisobga olish uchun taklif etilayotgan hisobvaraqlar va ularning tavsifi 3-jadvalda berilgan. Bunda 2620 “Hayvonlar” analitik hisobvarag'i tarkibida o'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni alohida kuzatish imkonini beruvchi 2621 va 2622 subhisobvaraqlari ajratiladi (3-jadval).

3-jadval

Joriy biologik aktivlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar va ularning tavsifi<sup>5</sup>

| Raqami | Hisobvaraq nomi                                             | Turi | Tavsifi                                                                                                                                                       |
|--------|-------------------------------------------------------------|------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 2600   | “Joriy biologik aktivlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari” | S    | Joriy biologik aktivlar va ulardan olingan mahsulotlarni umumlashtiruvchi bosh (sintetik) hisobvaraq                                                          |
| 2610   | “O'simliklar”                                               | A    | Bir yillik (qisqa muddatli) o'simliklar va ularni yetishtirish xarajatlari hisobi uchun foydalaniladi                                                         |
| 2620   | “Hayvonlar”                                                 | A    | Yosh (o'stirishdagi) va boquvdagi hayvonlar hisobi uchun; tarkibida 2621 “O'stirishdagi hayvonlar” va 2622 “Boquvdagi hayvonlar” subhisobvaraqlari ajratiladi |

Joriy biologik aktivlar bo'yicha tavsiya etilayotgan buxgalteriya o'tkazmalari 4-jadvalda keltirilgan (4-jadval).

4-jadval

Joriy biologik aktivlar bo'yicha tavsiya etilayotgan buxgalteriya o'tkazmalari<sup>6</sup>

| № | Xo'jalik muomalasi mazmuni                                                                                   | Debet                                | Kredit                                                           |
|---|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------|------------------------------------------------------------------|
| 1 | Qisqa muddatli o'simliklar ekish va yetishtirish xarajatlari joriy biologik aktivlar tarkibiga qabul qilindi | 2610 “O'simliklar”                   | 2010 “Asosiy ishlab chiqarish”                                   |
| 2 | Yosh hayvonlar va boquvdagi hayvonlar hisobga olindi                                                         | 2620 “Hayvonlar”                     | 2010 “Asosiy ishlab chiqarish”                                   |
| 3 | Aholidan sotish uchun qoramollar qabul qilindi                                                               | 2620 “Hayvonlar”                     | 6010 “Yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar” |
| 4 | Joriy biologik aktivlarning haqqoniy qiymati oshdi                                                           | 2610, 2620                           | 9390 “Boshqa operatsion daromadlar”                              |
| 5 | Joriy biologik aktivlarning haqqoniy qiymati kamaydi                                                         | 9490 “Boshqa operatsion xarajatlari” | 2610, 2620                                                       |
| 6 | Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsuloti omborga qabul qilindi                                             | 2810 “Tayyor mahsulotlar”            | 2610 “O'simliklar”                                               |
| 7 | Boquvdagi hayvonlar asosiy podaga o'tkazildi                                                                 | 0182 “Hayvonlar”                     | 2620 “Hayvonlar”                                                 |
| 8 | Joriy biologik aktivlar sotildi                                                                              | 9110 “Sotilgan mahsulot tannarxi”    | 2610, 2620                                                       |

Tadqiqot jarayonida ishchi hayvonlarni hisobga olishni 41-son BHXS talablari asosida yanada takomillashtirish imkoniyati mavjudligi aniqlandi. Mazkur standart qishloq xo'jaligi mahsulotini olishga mo'ljallangan biologik aktivlarga taalluqli bo'lib, ishchi hayvonlar esa ishlab chiqarish vositasi sifatida muhim o'rin tutadi. Shu bois ishchi hayvonlarni asosiy vositalar tarkibida (0170 hisobvarag'ida) hisobga olish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va joriy biologik aktivlarni esa 2600 hisobvarag'ida aks ettirish maqsadga muvofiq.

Taklif etilgan ishchi hisobvaraqlar tizimi biologik aktivlar harakati, ko'payishi va qiymat o'zgarishlari yuzasidan shaffof, tezkor va analitik axborot shakllantirishga xizmat qiladi. Sintetik va analitik hisobning ajratilishi biologik aktivlar to'g'risidagi ma'lumotlarning batafsilligi, xolisligi va ishonchligini oshiradi hamda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar talablariga muvofiqligini ta'minlaydi.

Ushbu natija Viruchayeva (Viruchayeva, 2020) va Terexov (Terexov, 2021) tomonidan ilgari surilgan alohida sintetik va analitik hisobvaraqlarni kiritish g'oyalari bilan uyg'unlashadi hamda uni uzoq muddatli va joriy biologik aktivlarni qamrab oluvchi yaxlit tizim va tegishli buxgalteriya o'tkazmalari darajasida rivojlantiradi. Taklif etilgan hisobvaraqlar tizimi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 16-apreldagi 03/23-3/1-05/2348-son ma'lumotnomasi) va biologik aktivlar harakati yuzasidan tezkor hamda analitik axborot shakllantirishga xizmat qilgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijasida qishloq xo'jaligi korxonalari biologik aktivlar sintetik va analitik hisobini

5 Manba: muallif ishlanmasi.

6 Manba: muallif ishlanmasi.



tashkil etish uchun yaxlit ishchi hisobvaraqlar tizimi ishlab chiqildi. Tizim uzoq muddatli biologik aktivlar bo'yicha 0180, 0181, 0182 hamda joriy biologik aktivlar bo'yicha 2600, 2610, 2620 hisobvaraqlarini va ularga mos buxgalteriya o'tkazmalarini qamrab oladi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda quyidagi takliflar shakllantirildi. Birinchidan, qishloq xo'jaligi korxonalari hisob siyosatining ishchi hisobvaraqlar rejasiga biologik aktivlar bo'yicha alohida sintetik va analitik hisobvaraqlarni kiritish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, 2620 "Hayvonlar" hisobvarag'i tarkibida o'stirishdagi (2621) va boquvdagi (2622) hayvonlarni alohida kuzatuvchi subhisobvaraqlarni ajratish tavsiya etiladi. Uchinchidan, ishchi hayvonlarni asosiy vositalar tarkibida hisobga olish orqali biologik aktivlar tasnifini 41-son BHXS talablariga muvofiqlashtirish lozim.

Kelgusi tadqiqotlarda taklif etilgan hisobvaraqlar tizimini raqamli buxgalteriya dasturlariga integratsiyalash hamda turli agrar tarmoqlar (chorvachilik, dehqonchilik, bog'dorchilik) xususiyatlarini hisobga olgan holda analitik hisobni yanada batafsillashtirish masalalarini o'rganish maqsadga muvofiq.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alborov, R.A. and Klychova, G.S. (2020) 'Fair value accounting of biological assets: problems and solutions', Vestnik of Kazan State Agrarian University, 15(2), pp. 120–126.
2. Argilés, J.M., García-Blandón, J. and Monllau, T. (2011) 'Fair value versus historical cost-based valuation for biological assets: predictability of financial information', Revista de Contabilidad – Spanish Accounting Review, 14(2), pp. 87–113.
3. Gonçalves, R., Lopes, P. and Craig, R. (2017) 'Value relevance of biological assets under IFRS', Journal of International Accounting, Auditing and Taxation, 29, pp. 118–126.
4. IAS 41 (2023) Agriculture. International Accounting Standard 41. London: IFRS Foundation.
5. Sedláček, J. (2010) 'The methods of valuation in agricultural accounting', Acta Universitatis Agriculturae et Silviculturae Mendelianae Brunensis, 58(6), pp. 59–66.
6. Terekhov, A.M. (2021) 'Improving the accounting of biological assets in agricultural organizations', Vestnik NGIEI, (3), pp. 88–99.
7. Viruchayeva, A.Ye. (2020) 'Accounting of biological assets in the transition to IFRS', International Accounting, 23(6), pp. 604–618.
8. Węgrzyńska, M. and Nowotarska, A. (2021) 'Determinants of the choice of biological asset valuation methods in agricultural entities', Zeszyty Teoretyczne Rachunkowości, 45(3), pp. 145–162.
9. Болтаев, А.С. (2024) «Биологик активлар бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш масалалари», Иқтисодиёт ва таълим, (2), 112–119-б.
10. Исманов, И.Н. (2023) «Қишлоқ хўжалигида биологик активлар аудити методологияси», Молия ва банк иши, (4), 78–86-б.
11. Ризаев, Н.К. (2022) «Аграр секторда биологик активлар ҳисобини халқаро стандартлар асосида ташкил этиш», Иқтисодий тараққиёт ва таҳлил, 1(2), 65–74-б.
12. Ташназаров, С.Н. (2021) Қишлоқ хўжалиги корхоналарида бухгалтерия ҳисоби. Тошкент: Иқтисод-Молия. 288 б.
13. Ходжаева, М.Я. (2024) «Биологик активлар синтетик ва аналитик ҳисобини ташкил этиш йўналишлари», Иқтисодий тараққиёт ва таҳлил, 2(5), 198–206-б.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentyabrdagi "Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-282-son qarori // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7728924>
15. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 27.12.2024 yilda ro'yxatdan o'tgan "O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti (21-sonli BHMS) "Xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasini va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma"ni tasdiqlash to'g'risida"gi 3593-son buyrug'i // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-7282737>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 7/1**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>